

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

TURAKULOV OYBEK XOLMIRZAYEVICH

**KUNGABOQAR HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATI, SXEMASI VA
QO‘SHIMCHA CHANGLATISHNING TA‘SIRI**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘T: 633.854:631.51:581.162:631.522

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии по сельскохозяйственным
наукам (PhD)**

**Table of contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in
agricultural sciences**

Turakulov Oybek Xolmirzaevich

Kungaboqar hosildorligiga ekish muddati, sxemasi va qo‘shimcha changlatishning ta’siri.....5

Туракулов Ойбек Холмирзаевич

Сроки сева, схема и влияние дополнительного опыления на урожайность
подсолнечника.....21

Turakulov Oybek Xolmirzayevich

The duration of planting, scheme and effect of additional pollination on the yield of
sunflower.....41

E‘lon qilingan nashrlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/30.12.2019.QX.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

TURAKULOV OYBEK XOLMIRZAYEVICH

**KUNGABOQAR HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATI, SXEMASI VA
QO‘SHIMCHA CHANGLATISHNING TA‘SIRI**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Qx1212 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.psuayiti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Lukov Mamadali Kudratovich
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yuldasheva Zulfiya Kamolovna
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti


Dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSs.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "12" may soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111202, Toshkent viloyati Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUEAITI. Tel: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37. e-mail: paxtauz@mail.ru).

Dissertatsiyasi bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 152 raqam bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 111202, Toshkent viloyati Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUEAITI. Tel: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "6" 05 kuni tarqatildi.
(2024 yil "6" 05 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).




Sh.N.Nurmatov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor.


F.M.Xasanova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, q.x.f.n., professor.


J.X.Axmedov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Soʻnggi besh yillikda kungaboqar yer yuzidagi 72 ta mamlakatda oʻrtacha 25-26 mln. gektardan ortiq maydonda parvarishlanib, oʻrtacha 40,5-42,0 mln. tonna hosil olishga erishilgan. Bu esa oʻrtacha 19,3 s/ga hosildorlikni, yaʼni yalpi hosildorlik 51,5 mln. tonnani tashkil etadi. Shuningdek, 5 ta mamlakatda, jumladan, Ukrainada (30%), Rossiyada (24%), Kanadada (18,5%), Argentinada (7%) va Turkiyada (6%) kungaboqar moyi ishlab chiqariladi. Bundan tashqari har yili yarim million tonna kungaboqar AQSh, Janubiy Afrika va Avstraliyada yetishtiriladi¹. Yer yuzining barcha mintaqalarida kungaboqar yetishtiradigan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud boʻlib, aholining oʻsimlik moyiga boʻlgan talabini qondirish boʻyicha muammolar ham ushbu ekin orqali yechimini topmoqda.

Dunyodagi yetakchi davlatlar amaliyotida kungaboqar yetishtirish boʻyicha ushbu ekinning oʻsishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatlarini oshirishda hududlarning geografik joylashuvi, tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda ekish muddati, meʼyori va agrotexnik tadbirlarning bir qancha zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etish boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda moyli kungaboqarning hosildorligi, hosil sifatleri yuqori va qayta ishlashga mos boʻlgan navlarini toʻgʻri tanlash, navlarning hosili va sifatini oshirishda ekish muddatlari, oziqlanish maydonini maqbullashtirish orqali moyli kungaboqarning oʻsishi, rivojlanishini jadallashtirish, aholining yogʻ-moy mahsulotlariga boʻlgan talabini qondirish, chorvachilikni toʻyimli ozuqa bilan taʼminlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmonida “...qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, boʻshab qolgan yerlarga moyli ekinlarni joylashtirish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo zamonaviy resurstejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish”² muhim vazifalardan biri qilib belgilab berilgan. Bu vazifalarni bajarish maqsadida mamlakatimizda moyli ekinlar yetishtirish boʻyicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan boʻlib, xususan, 2022 yilda 58,0 ming gektar maydonga kungaboqar ekilib, 161 ming tonna hosil olingan. Yetishtirilgan kungaboqar hosili toʻliq qayta ishlash korxonalariga yoʻnaltirilgan boʻlib, ushbu hosildan 72 ming tonna oʻsimlik moyi va 89 ming tonna kungaboqar shroti ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan kungaboqar shroti chorvachilik va parrandachilik xoʻjaliklariga yoʻnaltirilganligi ahamiyatlidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 apreldagi PQ-225 son “Qishloq xoʻjaligi

¹. <https://www.faostat.2023>

². <https://lex.uz/docs/-4567334>

maxsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish va ularni xarid qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-martdagi "Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021-yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida"gi 121-son hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V.«Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammolarning o'rganilganlik darajasi: Respublikamiz sharoitida asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirilganda ekinning nav xususiyatlarini hisobga olgan holda kungaboqar yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish orqali hosildorligini oshirish yuzasidan D.T.Abdukarimov, T.E.Ostanakulov, A.Amanova, M.K.Lukov, S.S.Tog'eva, J.B.Xudayqulov, T.Azizov, I.Anorboev, S.To'xtaeva, A.B.Dyakov, D.S.Vasilev, D.N.Belovsev, Yu.S.Mel'nik, A.A.Borodulina, A.V.Anaщенко, A.Ya.Pan'senko, V.T.Piven, O.I.Voloshina, B.S.Pustovoyt, T.A.Perestova, I.A.Menkevich, V.E.Borkovskiy, A.I.Plotnikov, A.N.Burmistro, V.A.Nikitina va boshqa olimlar tomonidan o'simlikning ekish muddatlari va oziqlanish maydonini o'rganish bo'yicha hamda H.N. Atabaeva, A.Amanova, K.Mametgulov, G.Novruzov, Y.Palyazova, B.S.Pustovoyt, T.A.Perestova, A.B.Dyakov, M.K.Lukov, E.V.Tog'aymuradov, I.S.Ismoilov, I.A.Menkevich, V.E.Borkovskiy, A.I.Plotnikov, A.N.Burmistro, J.B.Xudayqulov kabi olimlar tomonidan changlanish sharoitlarining ahamiyati bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Lekin, Samarqand viloyatining kuzgi bug'doydan bo'shagan sug'oriladigan yerlarida takroriy ekin sifatida kungaboqar navlarning hosildorligiga maqbul ekish muddati, sxemasi hamda gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatishning ta'siri bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand veterinariya meditsinasi institutining ilmiy tadqiqotlar rejasi hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining QX-A-KX-2018-271-raqamli "Respublikaning turli iqlim va tuproq sharoitlarida yangi, istiqbolli hamda rayonlashtirilgan kartoshka, kungaboqar, sabzavot (shirin makkajo'xori), topinambur hamda batat ekinlarining birlamchi urug'chilik tizimini takomillashtirish" mavzusidagi Davlat ilmiy amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarini ekish muddatlari, sxemalarining o'simlikning o'sishi, rivojlanishiga hamda gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatishning hosildorlik va hosil sifatlariga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kungaboqar navlari urug'larining dala unuvchanligi va tup soniga ekish muddati hamda sxemalarining ta'sirini aniqlash;

ekish muddati va sxemalarining kungaboqar navlarining o'suv davri davomiyligiga ta'sirini aniqlash;

kungaboqar navlarini har xil muddatlarda va turli ekish sxemalarida ekilganda barg sathi va umumiy biomassasining shakllanish dinamikasiga ta'sirini aniqlash;

kungaboqar navlarining fotosintetik potentsiali va sof mahsuldorligiga ekish muddati va sxemalarining ta'sirini aniqlash;

har xil muddatlarda ekilgan kungaboqar navlarining maxsuldorlik va hosilining sifat ko'rsatkichlariga ekish sxemasi hamda gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatishning ta'sirini aniqlash;

kungaboqar navlarining hosildorligiga ekish muddati, sxemasi hamda qo'shimcha changlatishning ta'sirini aniqlash;

turli muddatlar va sxemalarda ekilgan kungaboqarning urug'idagi moy miqdoriga qo'shimcha changlatishning ta'sirini aniqlash;

ekish muddati, sxemasi va qo'shimcha changlatishning kungaboqar navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiya berishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari, kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti kuzgi bug'doydan bo'shagan sug'oriladigan yerlarda takroriy ekin sifatida kungaboqar navlarining 1-reproduksiyali urug'larini har xil ekish muddatlari (1 iyul, 10 iyul va 20 iyul), turli ekish sxemalarida (70x20-1, 70x25-1 (st), 70x30-1, 70x35-1 va 70x40-1) o'stirish orqali o'simlik o'sishi, rivojlanishi hamda gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatish o'tkazish bilan hosildorlik va hosil sifatiga ta'sirini baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning uslublari. Dala va ishlab chiqarish tajribalarini o'tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig'ish, hisoblash va tahlillar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI), O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini sinash bo'yicha Davlat komissiyasi uslubi hamda tavsiyalari asosida olib borilgan. Dala tajribalarida olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft excel dasturi yordamida B.A.Dospexov "Metodika polevogo opyta" usulida hisoblangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlari uchun maqbul ekish muddati 1-iyul hamda Sam QXI 20-80 navida 70x30-1 sm va SUR navida 70x25-1 sm ekish sxemasi aniqlangan;

kungaboqar navlarini 10 va 20 iyul muddatlariga nisbatan 1 iyulda ekish, Sam QXI 20-80 navida qator orasi 70 sm, o'simlik orasi 20, 25, 35, 40 sm ga nisbatan 30 sm hamda SUR navida qator orasi 70 sm, o'simlik orasi 20, 30, 35, 40 sm ga nisbatan 25 sm sxemada ekilganda o'simliklarning o'sishi, rivojlanishiga, shu bilan birga gullash fazasida sun'iy ravishda 2 marta qo'shimcha changlatishning ekin hosildorligi va sifatlariga ijobiy ta'siri yuqoriligi aniqlangan;

takroriy ekin sifatida ekilgan moyli kungaboqar navlarining 1 iyul muddatida ekilganda va Sam QXI 20-80 navini gektariga 47,6 ming tup va Sur navini 57,1 ming tup me'yorida ekib o'stirilganda barg sathi, umumiy biomassaning shakllanish dinamikasi va fotosintetik faoliyati yuqoriligi isbotlangan;

Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida 1 iyul muddatida ekilgan kungaboqarning Sam QXI 20-80 navini 70x30-1 sm va SUR navini 70x25-1 sm ekish sxemalarida yetishtirib, gullash fazasida 2 marta sun'iy ravishda qo'shimcha changlatish o'tkazishning iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning Sam QXI 20-80 navini 70x30-1 sm va SUR navini 70x25-1 sm sxemada ekilganda yorug'lik va oziqlanish maydonidan samarali foydalanish hisobiga hamda gullash fazasida 2 marta qo'shimcha changlatish ta'sirida o'simliklarning eng yuqori hosil olishni ta'minlagan. Kungaboqar navlarini 10 va 20 iyul muddatlariga nisbatan 1 iyulda ekish bilan gektariga hosildorlik Sam QXI 20-80 navida barcha variantlarda 3,5-6,2 s gacha, SUR navida 3,3-5,8 s gacha oshgan, Sam QXI 20-80 navida qator orasi 70 sm, o'simlik orasi 20, 25, 35, 40 sm ga nisbatan 30 sm ekilganda tegishli 6,5; 1,7; 0,4 va 4,6 s hamda SUR navida qator orasi 70 sm, o'simlik orasi 20, 30, 35, 40 sm ga nisbatan 25 sm sxemada ekilganda mos ravishda 4,6; 0,3; 2,1 va 4,5 s yuqori bo'lganligi qayd etilgan;

barcha ekish muddatlari va sxemalarida tabiiy changlanganga nisbatan gullash fazasida sun'iy ravishda 2 marta qo'shimcha changlatish o'tkazilganda o'simlikning hosildorligi (Sam QXI 20-80 navida 2,2-4,7 s/ga va SUR navida 1,3-4,2 s/ga) yuqoriligi kuzatilgan;

urug' ekish muddatlari kungaboqar urug'idan olinadigan moy miqdoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, 1 iyulda ekilgan urug'dagi moy miqdori kech ekilgan muddatlarga nisbatan 1,3-4,9 foizgacha yuqori hamda gektaridan moy olish Sam QXI 20-80 navida 165-388 kg/ga, SUR navida 170-336 kg/ga ko'p bo'lishi qayd etilib, gektar hisobidagi eng ko'p moy erta 1 iyulda ekilganda Sam QXI 20-80 navida 70x30-1 sm sxemada qo'shimcha changlatilganda (1825 kg) va SUR navida 70x25-1 sm sxemada qo'shimcha changlatilganda (1461 kg) kuzatilgan;

Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning 1 iyul muddatida ekilganda va gullash fazasida 2 marta qo'shimcha changlatilib yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi Sam QXI 20-80 navida 70x30-1 sm ekish sxemasida (sof foyda 16,886 ming so'm, rentabellik 137,1%) va SUR navida 70x25-1 sm ekish sxemasida (sof foyda 13,036 ming so'm, rentabellik 105,8%) eng yuqoriligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'tkazilgan dala va ishlab chiqarish tajribalarini uslubiy jihatdan to'g'riligi, dissertatsiya ishida qo'llanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan natijalarning respublika va xorijiy olimlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, ma'lumotlarning ishonchliligi, tadqiqotlar yo'nalishi Davlat buyurtmalari bo'yicha amaliy ilmiy loyihalarning tarkibiy qismi ekanligi, tadqiqotlar natijalarining xalqaro va respublika

miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shuningdek, ilmiy nashrlarida chop etilib, ishlab chiqarishga tavsiyalar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqar navlarining maqbul (1 iyul) ekish muddati va (Sam QXI 20-80 navida 70x30-1 sm. va SUR navida 70x25-1 sm) sxemasini aniqlash, kungaboqarning o'sishi, rivojlanishiga, barg sathi, biomassa to'plashiga ekish muddati va sxemasining bog'liqligini, shuning bilan birga hosildorligiga va hosil strukturasi ga ekish muddati va sxemasi hamda gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatishning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslanishi, moyli kungaboqardan yuqori va sifatli hosil yetishtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekin sifatida kungaboqarni yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlari, jumladan, optimal (1 iyul) ekish muddati, (Sam QXI 20-80 navida 70x30-1 sm va SUR navida 70x25-1 sm) sxemasi va o'simliklarni gullash davrida qo'shimcha sun'iy changlatishning samaradorligi, ekish sxemasini belgilashda nav xususiyatlarini e'tiborga olish kerakligi aniqlanganligi bilan belgilanadi. Masalan, Sam QXI 20-80 navi 70x30-1, SUR navi esa 70x25-1 sm sxemada ekilib, gullash davrida qo'shimcha changlatish 1,3-4,7 s/ga qo'shimcha hosil olishni ta'minlashi amalda isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida moyli kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarini ekish muddati, sxemasi va gullash fazasida qo'shimcha changlatish o'tkazish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

klaster va fermer xo'jaliklari uchun hammualliflikda "Samarqand viloyati sharoitida kungaboqarning maqbul ekish muddati va sxemasini takomillashtirish bo'yicha" tavsiyanoma chop etilgan va tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 16 dekabrda №07/21-05/6424-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu tavsiyalar qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy xodimlar va fermer xo'jaliklarida qo'llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

moyli kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarini yetishtirish texnologiyasi 2023 yilda Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida 12 gektar, Jomboy tumanida 9 gektar va Tayloq tumanida 11 gektar maydonga, jami 32 ga maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 16 dekabrda №07/21-05/6424-son ma'lumotnomasi). Natijada moyli kungaboqarni yetishtirish texnologiyasi bo'yicha takroriy muddatda 1 iyulda ekilib, gullash fazasida 2 marta qo'shimcha changlatish o'tkazilganda Sam QXI 20-80 navidan 70x30-1 sm sxemada 36,5 s/ga va SUR navidan 70x25-1 sm sxemada 31,7 s/ga hosil olingan va rentabellik darajasi Sam QXI 20-80 navida 137,1% va SUR navida 105,8% gacha oshishiga erishilgan;

moyli kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarini yetishtirish texnologiyasi 2023 yilda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida 11 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 16 dekabrda №07/21-05/6424-son ma'lumotnomasi). Natijada moyli kungaboqarni yetishtirish texnologiyasi bo'yicha takroriy muddatda 1 iyulda ekilib, gullash fazasida 2 marta

qo‘shimcha changlatilganda eng ko‘p moy Sam QXI 20-80 navidan 70x30-1 sm ekish sxemasida 1701 kg/ga va SUR navidan 70x25-1 sm ekish sxemasida 1461 kg/ga ajratib olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari har yili Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar universitetning uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan, dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo‘yicha 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, shulardan 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammolarning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning uslublari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kungaboqar hosildorligi, ekish muddatlari, ekish sxemasi va qo‘shimcha changlatishni o‘rganish bo‘yicha ilmiy manbalar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida kungaboqar ekinining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kungaboqar o‘stirishning agrotexnikasi, tuproq va iqlim sharoitlari, kungaboqar hosildorligiga ekish sxemasi va muddatlarining ta‘siri, hosildorligida qo‘shimcha changlatish va changlanish sharoitlarining ahamiyatiga doir tadqiqotlar natijalari, chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, internet ma‘lumotlari keltirib o‘tilgan. Natijalarning nazariy va amaliy xulosalari tahlil qilinib, nazariy va amaliy yangiliklari bo‘yicha tadqiqotlar yo‘nalishi belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot tuproq-iqlim sharoitlari, ob‘ektlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba dalasi tuprog‘ining agrokimyoviy tavsifi, tadqiqot o‘tkazilgan yillarning iqlim sharoitlari, o‘tkazish uslublari, tajribada o‘rganilgan moyli kungaboqar navlarining ta‘rifi va o‘stirish agrotexnologiyasi bo‘yicha batafsil ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dala tajribalari o‘tkazilgan (2020-2022) universitet o‘quv tajriba xo‘jaligining o‘tloqi-bo‘z tuproqlarini agrokimyoviy tavsifi haydalma (0-30 sm) va haydov osti qatlamidan (31-50 sm) namunalar olinib, haydalma qatlamda gumus miqdori 0,92 %; umumiy azot 0,082 %, fosfor 0,112 %, kaliy 2,42 %ni, nitrat azoti-15,5 mg/kg, ammoniy azoti 28,2 mg/kg, harakatchan fosfor 26,6, almashinuvchan kaliy 230

mg/kg ni tashkil etdi. Haydov osti qatlamda (31-50 sm) bu ko'rsatkichlar kamaygani va mos ravishda, gumus miqdori 0,63 %; umumiy azot 0,054 %, fosfor 0,092 %, kaliy 2,34 %ni, nitrat azoti-9,6 mg/kg, ammoniy azoti-16,5 mg/kg, harakatchan fosfor 18,2 mg/kg, almashinuvchan kaliy 195 mg/kg ekanligi ma'lum bo'lgan.

Tajribalar olib borilgan yillarda ob-havo ma'lumotlari eng ko'p o'rtacha oylik yog'in miqdori qish va bahor oylariga to'g'ri keldi, yog'inlar miqdori yillar bo'yicha bir biridan keskin farq qildi. 2021 yilga 2022 yilda yog'inlar miqdori sezilarli oshgan, masalan 2021 yilga mart oyida 61 mm bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda esa 148,6 mm ni tashkil etdi. Aprel oyida esa 2020 va 2021 yillarga nisbatan biroz past bo'ldi (2020 yilda 56,9 mm, 2021 yilda 53 mm va 2022 yilda 47 mm).

Olib borilgan dala va laboratoriya tajribalarining uslub va usullariga batafsil to'xtalib o'tilgan. Kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarining tavsifi hamda dala tajribalari o'tkazilgan maydonda qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlari dissertatsiyaning "2.4-§. Tajribada o'rganilgan moyli kungaboqar navlarining ta'rifi va o'stirish agrotexnologiyasi" deb nomlangan paragrafida batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning **"Kungaboqarning o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik ko'rsatkichlari hamda hosildorligiga ekish muddati va sxemasini ta'siri"** deb nomlangan uchunchi bobida urug'larning dala unuvchanligi va ko'chatlar soni, navlarining o'suv davri davomiyligi, poya balandligi, barg sathining shakllanishi, umumiy biomassaning shakllanish dinamikasi, fotosintetik potentsiali, sof mahsuldorligi, hosil strukturasi hamda hosildorlik ma'lumotlari tahlil qilingan.

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navini ekish muddati 1 iyuldan 10 iyulga hamda 20 iyulga kechikishi bilan ekish sxemalariga mos ravishda o'suv davri boshida va o'suv davri oxirida rejadagi tup soniga nisbatan foiz hisobidagi ko'rsatkichlari kamayib bordi. Har bir ekish muddatidagi oziqlanish maydonining ortishi bilan ushbu ko'rsatkich oshib borganligi qayd etilgan.

Kungaboqarning SUR navida ham ushbu qonuniyat kuzatildi hamda ikkala navda ham eng yuqori ko'rsatkich 1 iyul ekish muddatining 70x40-1 sm. li ekish sxemasida o'suv davri boshida va oxirida, mos ravishda, Sam QXI 20-80 navida 97,1 va 91,6 % ni hamda SUR navida esa 97,0 va 90,8 % qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich 20 iyulda ekilganda 70x20-1 sm. li ekish sxemasida mos ravishda Sam QXI 20-80 navida 90,6 va 83,3 % hamda SUR navida 90,4 va 82,6% ni tashkil etgan.

Kungaboqar o'suv davrida unib chiqish, birinchi juft barg chiqarish, savatcha shakllanishi, gullash hamda pishish kabi rivojlanish fazalarini o'taydi. Olib borilgan tajriba ma'lumotlariga ko'ra kungaboqar navlari rivojlanish davomiyligiga oziqlanish maydonining ta'siri sezilarli bo'ldi.

Tajribada ekish muddati kechikishi o'suv davri davomiyligining uzayishiga olib keldi. Ekish muddati 10 iyulda ekilgan variantlarda, 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan pishib yetilishi 1 kunga kechikkanligi aniqlandi. 20 iyulda ekilgan variantlarda esa 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan 2-3 kun kechroq pishib yetilganligi qayd etilgan.

SUR navida ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qoldi. Tajribada o'rganilgan SUR navi Sam QXI 20-80 naviga nisbatan tezpishar ekanligi aniqlandi. Barcha ekish muddatlaridagi variantlarda SUR navi Sam QXI 20-80 naviga nisbatan 9-10 kun erta pishib yetilganligi aniqlangan.

Ekish muddatining kechikishi o'simlik bo'yining pasayishiga olib keldi. Sam QXI 20-80 navi 20 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm. ekish sxemasida o'simlik bo'yi 181 sm. bo'lganligi qayd etildi. Bu ko'rsatkich erta 1 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm. ekish sxemasiga nisbatan 2 sm. past bo'ldi. Kechki 20 iyulda ekilgan variantlar orasida o'simlik bo'yi eng past ko'rsatkich 70x40-1 sm. ekish sxemasida 171 sm. bo'lganligi kuzatildi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan 7 sm. past bo'lganligi aniqlangan.

Tajribada o'rganilgan SUR navida ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qoldi. Ammo Sam QXI 20-80 navi SUR naviga nisbatan poyalari balandroq bo'lganligi kuzatildi. Ikkala navda ekish muddatining 1 iyuldan 10 iyulga hamda 20 iyulga kechikishi hamda oziqlanish maydonining 1400 sm² dan 2800 sm² gacha qisqarishi bilan o'simlik bo'yi pasayib borishi kuzatilgan.

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navida bir gektardagi barg yuzasi ko'rsatkichi Sur naviga nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi. O'lchashning 30-35 kunida Sam QXI 20-80 navida ekish muddati va oziqlanish maydonining o'zgarishi 16,66-26,17 ming m²/ga oralig'ida bo'lgan.

Shuningdek, ushbu ko'rsatkich o'rganishning 30-35 kundan 60-65 kuniga qadar barcha ekish muddatlari va sxemalari bo'yicha, gektariga 19,64-30,89 ming m² gacha ortib borishi kuzatildi. Barcha ekish muddatlarida (1 iyul, 10 iyul va 20 iyul) ekish sxemasi 70x20-1 sm. dan 70x30-1 sm. gacha ortishi barg sathining gektar hisobidagi ortishiga, 70x30-1 sm dan 70x40-1 sm gacha kengayishi bilan maydon birligidagi tup sonining kamayishi hisobiga ushbu ko'rsatkich kamayib borgan.

Kungaboqarning SUR navida ham barg yuzasi o'rganishning 30-35 kundan 60-65 kuniga qadar barcha ekish muddatlari va sxemalari bo'yicha, gektariga 15,93-25,93 ming m² ortib borishi kuzatildi. Ekish muddati, sxemasi va oziqlanish maydonining o'zgarishi hisobiga barcha o'lchash kunlarida gektar hisobida eng yuqori barg sathi ko'rsatkichi 1 iyul ekish muddatining 70x25-1 sm li ekish sxemasida, eng kam barg sathi ko'rsatkichi esa 20 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm li ekish sxemasida qayd etildi. O'rganilgan barcha ekish muddatlari va sxemalarida Sam QXI 20-80 navi barg sathi ko'rsatkichi SUR navidan yuqori bo'lgan.

Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarini turli muddat va ekish sxemalarida ho'l hamda quruq biomassa to'planish jadalligini o'rganish natijalari tahlili qilinganda, biomassa miqdori ekish muddatlari hamda ekish sxemalariga bog'liq ravishda o'zgarib borishi aniqlandi. Ekish 1 iyulda Sam QXI 20-80 navi nazorat variantida o'lchash kunlariga (o'suv fazalari) bog'liq holda ho'l massa gektariga 40,37-126,15 t, quruq massa gektariga 6,96-29,90 t bo'lganligi qayd etildi. Ekishning o'rta (10 iyul) va kechki (20 iyulda) muddatlarda biomassa miqdori, tegishlicha, gektariga 35,83-104,52; 6,16-25,10 t. va 30,06-86,97; 5,18-

20,30 t. oralig'ida bo'lib, ekish muddatlarini kechikishi biomassa kamayishiga olib kelgan.

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navida biomassa o'rganishning 30-35 kunidan 60-65 kuniga qadar barcha ekish muddatlari va sxemalari bo'yicha, gektariga ho'l massa 52,54-89,83 t. gacha, quruq massa miqdori esa 13,46-25,37 t. gacha ortib bordi. Ekish muddatining kechikishi biomassa miqdorining kamayishiga, o'lchashning 30-35 kunidan 75-80 kunigacha esa oziqlanish maydoni 1400 sm² dan 2100 sm² gacha ortishi biomassaning ortishiga va oziqlanish maydonining 2100 sm² dan 2800 sm² gacha ortishi maydon birligidagi tup sonining kamayishi hisobiga ushbu ko'rsatkichning pasayishiga sabab bo'ldi. Eng yuqori biomassa ko'rsatkichi barcha o'lchash kunlarida 1 iyul ekish muddatining 2100 sm² oziqlanish maydonida qayd etilgan.

Kungaboqarning SUR navida ham barcha ekish muddatlarida o'lchash kunlari davomida biomassa miqdorining oshib borishi kuzatildi, ekish muddati kechikishi bilan ushbu ko'rsatkichning kamayishiga sabab bo'ldi. Har bir ekish muddatida va o'lchash kunlarida oziqlanish maydoni 1400 sm² dan 1750 sm² gacha ortishi biomassaning ortishiga va oziqlanish maydonining 1750 sm² dan 2800 sm² gacha ortishi maydon birligidagi tup sonining kamayishi hisobiga ushbu ko'rsatkichning pasayishi kuzatildi. Barcha variantlarda va o'lchash kunlarida Sam QXI 20-80 navidagi biomassa miqdori SUR naviga nisbatan yuqori bo'lgan.

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarini turli ekish muddatlari va sxemalarida ekinning fotosintetik potentsiali mos ravishda 0,53-4,74 va 0,39-3,24 (mln.m²/ga)*kun oralig'ida o'zgarib turishi va bu ko'rsatkich ekish muddati, sxemasi hamda o'suv davriga bog'liqligi aniqlandi. Eng kichik fotosintetik potentsial ko'rsatkichlari kungaboqar navlarida savatcha hosil qilish o'suv davrida, eng yuqori qiymatlar esa pishish davrida bo'lishi aniqlandi. Fotosintetik potentsial ekinning pishish fazasigacha oshib bordi. Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navini 1 iyulda ekilgan nazorat variantida fotosintetik potentsial savatcha hosil bo'lish fazasida 0,80 mln m²/ga*sutkani tashkil etib, ekish sxemasi 70x30-1 sm. bo'lgan variantda eng yuqori qiymat – 0,86 mln m²/ga* sutkaga teng bo'lishi aniqlandi hamda bu qonuniyat gullash va pishish fazalarida ham kuzatildi. Oziqlanish maydonlarining keyingi oshishi fotosintetik potentsialni nisbatan kamayishiga olib kelgan.

Kungaboqarning SUR navida ham ekish muddatining kechikishi va o'suv davri savatcha paydo bo'lishdan pishish fazasigacha fotosintetik potentsial o'zgarishi Sam QXI 20-80 navidagi kabi qonuniyat kuzatildi. Har bir ekish muddatida ekish sxemasi 70x25-1 sm. bo'lgan variantda yuqori qaymat qayd etilib, barcha variantlar bo'yicha eng yuqori fotosintetik potentsial ko'rsatkichi pishish fazasida 1 iyul ekish muddatining 70x25-1 sm.li ekish sxemasida 3,24 (mln m²/ga)*kunni tashkil etgan.

Fotosintez sof mahsuldorligi quyosh radiatsiyasining intensivligi, miqdori, barg sathi, fotosintetik potentsialga bog'liq ko'rsatkich bo'lib, 1 m² barg sathida 1 sutkada hosil bo'lgan quruq moddaning g. hisobida ko'rsatilishi bilan ifodalanadi (g/m²*sutka).

Kungaboqar navlarining fotosintez sof mahsuldorligiga ekish muddatlari va sxemalari ta'sirini o'rganish natijalari ko'rsatishicha, o'rganilgan omillarning fotosintez sof mahsuldorligiga ta'sir darajasi turlicha bo'lganligi aniqlangan.

Sam QXI 20-80 navida ekish muddatlari bo'yicha fotosintez sof mahsuldorligi o'simlikning savatcha hosil qilish fazasida 1 iyul ekish muddatida oziqlanish maydoni 1400 sm² dan 2800 sm² ga oshirilganda o'rtacha 7,90-9,04 g/m² *sutkagacha o'zgardi. Ekish muddati 10 iyulda oziqlanish maydoni 1400 sm² dan 2800 sm² ga o'zgarganda 7,66-8,93 g/m²*sutka bo'lganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich ayni shu variantlarda SUR navida muvofiq ravishda 6,16-7,27; 5,70-6,95 va 5,26-5,98 g/m²*sutkagacha o'zgargan.

Kungaboqarni ekish muddatlari kechikib borishi bilan har ikkala navda ham barcha ekish sxemalarida fotosintez sof mahsuldorligining kamayib borishi kuzatildi. Barcha ekish muddatlarida fotosintetik sof mahsuldorlikning oshishi Sam QXI 20-80 navida oziqlanish maydoning 1400 sm² dan 2100 sm² gacha ortishi bilan, SUR navida ga 1400 sm² dan 1750 sm² gacha ortishi bilan kuzatildi, ikkala navda ham oziqlanish maydonining 2800 sm² gacha ortishi bilan maydon birligidagi tup sonining kamayishi hisobiga fotosintetik sof mahsuldorlikning kamayishi qayd etilgan.

Ko'pchilik ilmiy manbalarda kungaboqar ekinining hosil strukturasi ifodalovchi ko'rsatkichlaridan hosil yig'ishtirishgacha saqlanuvchanligi, o'simlik bo'yi, savatcha diametri, savatcha va savatchadagi pistalar vazni, bir tup o'simlik hosili va 1000 ta urug' massasi o'rganilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar kungaboqarning Sam QXI 20-80 va SUR navlarida turli ekish muddati va sxemalari negizida ham o'rganildi hamda o'simlik hosilini shakllanishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Ikkala navda ham ekish muddati 1 iyuldan 10 iyulga va 20 iyulgacha kechikishi bilan hosil strukturasi ko'rsatkichlari kamayishi kuzatilgan bo'lsa, ekish sxemasining 70x20-1 sm dan 70x40-1 sm gacha o'zgarishi ushbu ko'rsatkichlarning ortishiga olib kelgan.

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navida barcha variantlar bo'yicha eng past ko'rsatkich 20 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm li ekish sxemasida hamda eng yuqori ko'rsatkich 1 iyul ekish sxemasining 70x40-1 sm li ekish sxemasida mos ravishda savatcha diametri 15,7 va 24,7 sm, bitta savatcha urug'i bilan vazni 146 va 205 g., urug'dagi moy miqdori 40,3 va 49,1 % bo'ldi. Bitta savatchadagi pistalar vazni, 1000 ta urug' massasi va urug' naturasi barcha muddatlarda 70x35-1 va 70x40-1 sm li ekish sxemasida bir xil bo'lib, 1 iyul ekish muddatida eng yuqori natija, mos ravishda 91 g., 82 g. va 426 g. qayd etildi. Sur navida ham ushbu qonuniyat saqlanib qoldi va mos ravishda savatcha diametri 14,1 va 22,6 sm, bitta savatcha urug'i bilan vazni 139 va 195 g., urug'dagi moy miqdori 38,3 va 46,6 % bo'lgan.

Kungaboqar navlari ekish muddati va sxemasiga bog'liq holdagi hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirilgan. Dehqonchilikda ko'llaniladigan har qanday agrotexnologik tadbir o'simlik hosildorligini va uning sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ushbu yo'nalishda dunyoda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Bizning tajribamizda kungaboqar navlaridan pista hosiliga ekish muddatlari va sxemalari sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navida ekish muddatlari pista hosili eng yuqori ko'rsatkich 1 iyulda ekilgan variantlarda o'rtacha gektariga 27,3-33,8 s. oralig'ida bo'ldi. Eng kam ko'rsatkich esa ekish muddati 20 iyulda ekilgan variantlarda, o'rtacha gektariga 21,0-27,8 s bo'lganligi qayd etilgan.

Ekish muddati 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan 10 iyul ekish muddatida ekish sxemasi variantlarga mos ravishda, o'rtacha gektariga 3,6; 3,5; 3,4; 3,2 va 2,7 s. kam, 20 iyul ekish muddatida esa mos ravishda o'rtacha gektariga 6,3; 6,2; 6,0; 5,8 va 5,7 s. kam hosil bo'lganligi qayd etildi. Ekish sxemalari bo'yicha barcha ekish muddatlarida Sam QXI 20-80 navida 70x30-1 sm. bo'lgan variantda eng yuqori hosil olindi. Erta (1.07) muddatda shu ekish sxemasida o'rtacha gektariga 33,8 s., o'rta (10.07) muddatda o'rtacha gektariga 30,4 s. va kechki (20.07) ekish muddatida esa o'rtacha gektariga 27,8 s. hosil olindi. Barcha ekish muddatlari va sxemalari bo'yicha eng yuqori hosildorlik 1 iyul ekish muddatining 70x30-1 sm. li ekish sxemasida qayd etildi va nazoratga (70x25-1 sm. li ekish sxemasi) nisbatan gektaridan 1,7 s yuqori hosil olingan.

Kungaboqarning SUR navida ham ekish muddatining kechikishi bilan 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan 10 iyulda variantlarga mos ravishda 3,3; 3,2; 3,2; 3,0; 3,3 s kam, 20 iyulda ekilganda mos ravishda 5,8; 5,6; 5,5; 5,2; 5,8 s/ga kam hosil olindi. Ekish sxemalari bo'yicha esa eng yuqori ko'rsatkich barcha ekish muddatlarida 70x25-1 sm ekish sxemasida qayd etildi. Eng yuqori hosildorlik 1 iyul ekish muddatining 70x25-1 sm li ekish sxemasida 29,5 s ni tashkil qildi.

Dissertatsiyaning **“Kungaboqar hosildorligiga ekish muddati va sxemasi negizida qo'shimcha changlatishning ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida turli ekish muddati va sxemasida o'stirilgan kungaboqar hosildorligiga qo'shimcha changlatishning ta'siri, kungaboqar hosilining sifat ko'rsatkichlari va kungaboqarning urug'idagi moy miqdori ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Har xil ekish muddatlarda (1 iyul, 10 iyul va 20 iyul) ekilgan kungaboqar navlari negizida ekish sxemalari (70x20-1, 70x25-1, 70x30-1, 70x35-1 va 70x40-1 sm) va gullash fazasida sun'iy ravishda qo'shimcha changlatish o'tkazish orqali pista hosilini tahlil qilganimizda, Sam QXI 20-80 navi eng kam 20 iyulda ekilgan ekish sxemalari variantlarida o'rtacha gektariga 21,0 s. dan 32,0 s. gacha bo'ldi. Eng yuqori hosil esa erta 1 iyulda ekilgan ekish sxemalari variantlarida o'rtacha gektariga 27,3 s. dan 36,5 s. gacha bo'lganligi qayd etildi. 10 iyulda ekilgan variantda eng yuqori hosildorlik ko'rsatkichi oziqlanish maydoni 2100 sm² bo'lgan 70x30-1 sm. ekish sxemasida qo'shimcha changlatilgan variantida o'rtacha gektaridan 33,8 s. bo'lganligi kuzatildi. Barcha ekish muddatlarida tabiiy changlatishga nisbatan qo'shimcha changlatilgan variantlarda hosildorlik yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Sam QXI 20-80 navida hosildorlik bo'yicha qo'shimcha changlatilgan variantlarda eng kam ko'rsatkich ekish muddati 20 iyulda ekilgan ekish sxema variantlarida kuzatildi. Bunda ekish sxemalarining qo'shimcha changlatilgan variantlariga mos ravishda, pista hosili o'rtacha gektaridan 25,7; 30,3; 32,0; 30,8; va 26,0 s. bo'lganligi qayd etildi. Barcha variantlar bo'yicha eng yuqori hosildorlik

1 iyul ekish muddatining 70x30-1 sm ekish sxemasida qo‘shimcha changlatilgan variantida 36,5 s/ga qayd etildi. Bu esa ayni shu ekish sxemasining tabiiy changlangan variantiga nisbatan gektariga 2,7 s, nazoratga nisbatan esa 4,4 s. yuqori hosil olingan (1-jadval).

1-jadval

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navi hosildorligiga ekish muddati va sxemasi hamda qo‘shimcha changlatishning ta’siri, s/ga

Ekish sxemasi, sm	Changlatish	Hosildorlik			O‘rtacha hosildorlik	Qo‘shimcha hosil		
		2020 y.	2021 y.	2022 y.		Ekish muddati bo‘yicha	Ekish sxemasi bo‘yicha	Qo‘shimcha changlatish bo‘yicha
1.VII								
70x20-1	Tabiiy	28,1	27,6	26,2	27,3	-	-4,8	-
	Qo‘shimcha	31,3	30,7	29,2	30,4	-	-	+3,1
70x25-1 (st)	Tabiiy	33,1	32,4	30,8	32,1	-	st	-
	Qo‘shimcha	36,1	35,4	33,6	35,0	-	-	+2,9
70x30-1	Tabiiy	34,8	34,1	32,4	33,8	-	+1,7	-
	Qo‘shimcha	37,6	36,9	35,0	36,5	-	-	+2,7
70x35-1	Tabiiy	34,4	33,7	32,1	33,4	-	+1,3	-
	Qo‘shimcha	37,1	36,4	34,6	36,0	-	-	+2,6
70x40-1	Tabiiy	30,1	29,5	28,0	29,2	-	-2,9	-
	Qo‘shimcha	32,3	31,7	30,1	31,4	-	-	+2,2
Umumiy EKF _{0,5}		3,19	3,50	3,24				
A omil EKF _{0,5}		4,80	5,03	4,84				
V omil EKF _{0,5}		3,04	3,18	3,06				
S _x %		3,28	3,67	3,58				
10.VII								
70x20-1	Tabiiy	24,4	23,9	22,8	23,7	-3,5	-4,9	-
	Qo‘shimcha	28,4	27,9	26,5	27,6	-2,8	-	+3,9
70x25-1 (st)	Tabiiy	29,5	28,9	27,5	28,6	-3,5	st	-
	Qo‘shimcha	33,2	32,5	30,9	32,2	-2,8	-	+3,6
70x30-1	Tabiiy	31,3	30,7	29,2	30,4	-3,4	+1,8	-
	Qo‘shimcha	34,8	34,1	32,4	33,8	-2,7	-	+3,4
70x35-1	Tabiiy	31,1	30,5	29,0	30,2	-3,2	+1,6	-
	Qo‘shimcha	34,0	33,3	31,7	33,0	-3,0	-	+2,8
70x40-1	Tabiiy	27,3	26,8	25,4	26,5	-2,7	-2,1	-
